

QO‘QON XONLIGIDA TARIXNAVISLIK RIVOJI

Qo‘qon Davlat Universiteti
Gumanitsr fanlar va tillar fakulteti Tarix yonalishi
2-bosqich 203-guruh talabasi
Xaydarova Ro‘zixon Abdurasul qizi
E-mail: Xaydarovarozi5@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qo‘qon xonligi davrida tarixnavislik ilmining rivojlanish bosqichlari va uning o‘ziga xos xususiyatlari keng yoritilgan. Xonlik hududida tarixiy voqealarni yozib borish, solnomalar yaratish hamda tarixiy manbalarni saqlash an‘analari tahlil qilingan. Shuningdek, davr tarixchilari tomonidan yaratilgan asarlarda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning aks etishi haqida ma‘lumot berilgan. Qo‘qon tarixnavisligining Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishdagi ahamiyati, tarixiy qo‘lyozmalar va manbashunoslikning ilmiy qiymati ochib berilgan. Maqolada tarixiy asarlar orqali xalqning milliy qadriyatlari, urf-odatlar va ma‘naviy merosining avlodlarga yetkazilishidagi o‘rni ham yoritilgan. Bundan tashqari, Qo‘qon xonligi tarixiga oid manbalarning bugungi kundagi tadqiqotlardagi ahamiyati va tarixnavislikning ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi haqida ilmiy xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, tarixnavislik, tarixiy taraqqiyot, tarixiy manbalar, qo‘lyozma asarlar, solnomalar, manbashunoslik, tarixchi olimlar, ilmiy meros, tarixiy hujjatlar, siyosiy hayot, ijtimoiy hayot, iqtisodiy taraqqiyot, madaniy muhit, ma‘rifat, Sharq tarixnavisligi, tarixiy tadqiqotlar, milliy qadriyatlar, ma‘naviy meros, adabiy muhit, tarixiy asarlar, xonlik tarixi, ilm-fan rivoji, tarixiy xotira, madaniy meros, qo‘qon tarixchilari, ilmiy manbalar, tarixiy tafakkur, o‘zbek davlatchiligi tarixi.

Qo‘qon xonligi (1709–1876) —O‘rta Osiyoda siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan muhim rol o‘ynagan davlatlardan biri bo‘lib, uning tarixi ko‘plab tadqiqotchilar diqqat markazida turadi. Bu xonlikning o‘ziga xos tarixi, siyosiy tuzilishi va ijtimoiy hayoti nafaqat hududdagi boshqa davlatlarga ta‘sir ko‘rsatgan, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining madaniy va ilmiy taraqqiyotida ham muhim o‘rin egallagan. Qo‘qon xonligi tarixnavisligi esa aynan shu davrni, voqealarni va hukmdorlar faoliyatini yozma manbalar orqali saqlab qolgan, tarixiy tafakkur va ma‘rifiy an‘analarni shakllantirgan asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Qo‘qon xonligi tarixnavisligi XVIII asrda o‘zining an‘anaviy shakllarini topa boshladi. Bu jarayon siyosiy va madaniy sharoitning o‘zgarishi, xonlikdagi siyosiy tartib-intizomni mustahkamlash, hamda hukmdorlarning o‘z faoliyatini yozma manbalar orqali hujjatlashtirish zaruriyati bilan bog‘liq edi. Tarixnavislar, odatda, saroy atrofidagi olimlar, diniy ulamolar va adiblar bo‘lib, ular o‘z asarlarida xonlik hayoti, siyosiy voqealar, ijtimoiy munosabatlar va madaniy qadriyatlarni ifodalaganlar. Qo‘qon tarixnavisligi shakllanishida O‘rta Osiyo va Eron tarixiy maktablari ta‘siri sezilarli bo‘lgan. Xususan, fors-tajik tarixiy an‘analarining ta‘siri bilan tarixiy voqealar she‘riy va badiiy uslubda bayon qilinishi, aruz vazni bilan yozilishining ildizlari shu davrda mustahkamlangan. Shu bilan birga, mahalliy turkiy til va uslublar ham tarixiy yozuvlarda keng qo‘llanila boshladi[1].

Tadqiqotchi Sh.Vohidov Qo‘qon tarixnavislik maktabida yaratilgan asarlarni quyidagi guruhlarga bo‘ladi:

- tarixiy-adabiy asarlar, bu asarlarda tarixiy voqealar bayoni birinchi o‘rinda turadi
- adabiy-tarixiy asarlar, bu asarlarda tarixiy voqealarning sabablariga asosiy e‘tibor qaratiladi.

Qo‘qon xonliging birinchi tarixnavisi Fazliy Farg‘oniy (Abulkarim Namangoniy) bo‘lib, u "Umarnoma" nomli kitob muallifidir. U "malik ul-shuaro" unvoniga ega bo‘lib, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan asarni Amir Umarxonning ko‘rsatmasi bilan yozgan. "Umarnoma" tojik tilida she‘riy yo‘l bilan yozilgan. Mazkur asarning yagona nusxasi Rossiya FA Sankt-Peterburg bo‘limi fondida saqlanmoqda. "Umarnoma" Amir Umarxonga ma‘qul bo‘lmadi, chunki uning talablariga javob bermas edi. Mushrif Isfaragiyning qalamiga mansub ushbu asarning nasriy varianti bilan taqqoslab, shunday hulosaga kelish mumkinki, Fazliy Farg‘oniy bir necha "xatoliklarga" yo‘l qo‘ygan. Birinchidan, Minglar sulolasining asoschisi Oltin beshik haqidagi rivoyatni keltirmaydi. Bu rivoyat Umarxonning Bobur orqali Temur va temuriylar bilan qarindoshligini isbotlashi kerak edi. Ikkinchidan, Amir Umarxon o‘zini amir al-muslimin deb e‘lon qilib, islom va din peshvosi lavozimiga da‘vo qilgan edi. Bu da‘voni tarixiy jihatdan asoslab berish zarur edi. Mushrif Isfaragiy esa Umarxonning sayidlar avlodidan ekanligini asoslab berishga harakat qildi. U xonning shajarasini tuzib, u ona tomondan Muhammad payg‘ambarning qizi Fotimaning avlodidan ekanligini "isbotlab" berdi[2]

Mushrif Isfaragiy esa, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, uning sayidlardan ekanligini "asoslab" beradi va ajdodlaridan biri "xo‘ja"lardan ekanligini ham ta‘kidlaydi. Umarxon hukmronligi davri va xonlikning madaniy hayoti haqida ma‘lumot beruvchi muhim manba - bu Dilshodi Barno qalamiga mansub "Tarixi muhojiron" nomli asardir. "Tarixi muhojiron" tarixiy-epizodik xarakterdagi asar hisoblanadi. Muallif esdalik tarzida Umarxonning 1816 yilda O‘ratepaga qilgan navbatdagi yurushini tasvirlaydi. Umarxon shaharni uzoq vaqt qamal qilib, qo‘lga kiritadi va 13 ming odamni asir etib, ularni Farg‘ona vodiysiga, Shahrixon yaqinidagi O‘ttiz adir degan joyga ko‘chiradi. Ular orasida 17 yashar Dilshodi Barno ham bor edi. U O‘ratepa shahrida 1800 yilda tug‘ilgan. Qo‘qonda u va yana 2 nafar qizni Umarxon haramiga tanlab olishadi, ammo u o‘zining o‘jarligi va xonga qo‘rslik bilan javob qaytarganligi bois haramga tushmay qoldi. Keyinchalik u turmush qurib, uzoq umr ko‘rdi va XX asr boshlarida vafot etdi. Dilshodi Barno o‘z ona tili - tojik tilida va o‘zbek tilida ijod qilgan. U shoira va tarixchi sifatida o‘ziga xos iste‘dod egasi edi. Bu uning asarlarida yaqqol sezilib turardi. "Tarixi muhojiron" - hissiy-dramatik va ma‘lum ma‘noda tragik asardir. Dilshodi Barno o‘z asarlarida Qo‘qon va O‘rotepa adabiy muhiti, madaniy hayoti haqida ma‘lumotlar keltiradi. Uning Xayriniso, Bahriniso, Anbar otin, Nodira, To‘ti qiz, Saida bonu, Masturaoy, Fazilat, Karomatoy, Fidoiya, Mahin bonu, Hofiza otin, Bahri kabi shoirlar haqidagi,

Mahbub, Muntazir, Gulxaniy, Eshon Shahdiy, Zufarxon to‘ra, Mazxaniy, Turobiy, Bahoriy, Sabuhii, Sadoiy singari shoirlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlari e‘tiborga loyiqdir[2].

Qo‘qon xonligi va boshqa O‘rta Osiyo davlatlari hayotining turli masalalarini yoritishga qiziqish tadqiqotchilar tomonidan Rossiyaning mintaqadagi harbiy harakatlaridan ancha avval boshlangan. Bu jarayon mahalliy va xorij mualliflarining mintqa davlatlarining boy tarixiy merosiga, ularning G‘arb va Sharq mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari tarixiga qiziqish bilan baholanadi. Ayniqsa Markaziy Osiyo xonliklari tarixshunosligi materiallari XIX asrga kelib, mintqa Rossiya va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi harbiy-siyosiy, diplomatik raqobat ob‘ektiga aylantirilganidan keyin hamda xonliklar o‘rtasidagi ziddiyatlar chorizm uchun Markaziy Osiyoda imperialistik va strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun qulay vaziyat yuzaga keltirilganidan keyin ko‘payib bordi[3].

Qo‘qon xonligi tarixi bo‘yicha 40 dan ortiq manbalar yaratilgan bo‘lib, ular asosan xonlar tomonidan buyurtma asosida yozilgan hisoblanadi. Sharq tarixnavisligining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblangan yondashuvning ikki tarfi ham borki, bunda obyektivlikdan qochib, mavjud jarayon faqat bir tomonlama yoritiladi. Bunday kamchiliklar manbalarni yaratish jarayonida uchrasa, bundan keyingi ya‘ni uni o‘rganishda ham qator kamchiliklar uchrashi ehtimoldan holi emas. Bobojonov o‘z tadqiqotlarida sovet davrida Qo‘qon tarixini o‘rgangan olimlarning ishini tahlil qilib chiqadi.

S.X.Ishonxonov tomonidan Qo‘qon tangalari katalogi tuzilib, nashr etildi. Bu tadqiqot nafaqat numizmatika sohasi uchun katta yutuq bo‘ldi. Bundan tashqari, shu paytgacha mavjud bo‘lgan xonlarning hukmronlik davrlariga o‘zgartirishlar kiritishga hamda siyosiy jarayonlarni yangicha talqin qilishga asos bo‘ldi. Biroq bu katalog bundanda kengroq bo‘lish imkoniga ham ega edi. Yana tangalardagi ayrim yozuvlarning noto‘g‘ri o‘qilishi va uning ilmiy muoamalgaga kiritilishi tarixchi uchun katta xato hisoblanadi[4].

Qo‘qon tarixini manbalar asosida tadqiq qilgan olim T.K.Beysembiyevning "Tarixi Shohruxiy" va "Alimquli hayoti" asarlari doirasida tahlil qilinganligini ko‘rib chiqamiz. Muallif o‘z ishida Qo‘qon siyosiy tarixi umumiy shaklda bayon etgan. Qo‘qon tarixnavisligi bo‘yicha juda muhim manba va nashrlardan foydalanishi , T.K.Beysembiyev o‘ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Bu "Qo‘qon yilnomalariga oid izohli ko‘rsatkich" asarida yana bir karra tasdiqlanadi. Tadqiqotchi ishlarini so‘ngida o‘zining biblogirafiyasini ham keltirib o‘tgan, bu esa undan keyingi tadqiqotchi uchun bir qator qulayliklarni yuzaga keltiradi.

Muallif ijod qilgan davrni inobatga oladigan bo‘lsak, o‘z ishiga sinfiy(mafkurafiy) qarashlar bilan yondashgan, biroq mustaqillikdan so‘ng bundan ham ozod bo‘ldi. Rossiya imperiyasining Qo‘qon hududiga bostirib kirishi haqidagi

muhim manba hisoblangan "Alimquli hayoti" asarining tarjima qilinishi va o‘rganilishi muallifning tarix uchun bergan tuhfaridan biri hisoblanadi.

Sovet sharq maktabining o‘ziga xos uslubi- bu bitta qo‘lyozma manba ustida ishlash, uni tahlil qilish va o‘rganish asosida dissertatsiya yozishdir. Qiyosiy tahlil qilinmasa, birgina manba bilan kifoyalmasa, manbadagi ma'lumotlarni isbotlanmasdan ilmiy muomalaga olib kirilsa, bu uni inkor etuvchi boshqa bir manba o‘rtasida qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi va natijada o‘sha jarayon haqida mavhumlik yuzaga keladi[4].

Qo‘qonning siyosiy tarixiga oid ba’zi tafsilotlarni X.N.Bobobekovning tadqiqotlarida uchratishimiz mumkin. "Po‘latxon qo‘zg‘aloni" o‘sha davr uchun xos bo‘lgan qabila separatizmining noaniq ko‘rinishlarni xalq harakati yoki hatto sinfiy kurashning ko‘rinishlari sifatida tavsiflash ham Sovet tarixiy metodologiyasining ta'siri sifatida ko‘rib chiqilgan. Muallif tadqiqotlarida mustamlaka davrining rus tilidagi nashrlari(asosan A.Serenbrennikov) va arxiv materiallariga asoslanib yozilgan bo‘lib, ularda mahalliy manbalardan juda kam foydalanilgan. Shu bilan birga ularni ham hech qanday tahlil va tizimsiz asosida olib bordi. Lekin bu jarayonga bir tomonlama ya'ni mafkuraga asoslangan qarashlar bilan yondashish hisoblanadi. X.Bobobekovning qator asarlari A.Hasanovning asariga o‘xshash nashrlar qatoriga kiritish mumkin. Ularning nomlarining yaqqol o‘xshashligi sovet davridagi tarixshunoslik maktabining vazifalaridan kelib chiqqanligi bejiz emas.

Yana bir sovet maktabining o‘ziga xos uslublaridan biri dissertatsiyaning nomlanishida bir xil klishe'lardan foydalanishdir. Ya'ni "Falon muallifning asar falon va falon hudud tarixini o‘rganishda muhim manba sifatida" . Aslida bu ba'zi manbalar tarixiy jihatdan ahamiyat kasb etmaydi degan fikrni uyg‘otadi[5].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Qo‘qon xonligi davrida tarixnavislik muhim darajada rivojlangan bo‘lib, bu jarayon xalqning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotini yoritishda katta ahamiyat kasb etgan. Xonlik davrida yaratilgan tarixiy asarlar va qo‘lyozmalar bugungi kunda ham qimmatli ilmiy manba sifatida xizmat qilmoqda. Tarixnavis olimlar tomonidan yozilgan solnomalar orqali davr voqealari, davlat boshqaruvi, xalq turmushi hamda madaniy muhit haqida muhim ma'lumotlar avlodlarga yetib kelgan.

Shuningdek, tarixnavislik nafaqat tarixni saqlash vositasi, balki milliy o‘zlikni anglash, ma'naviy merosni asrash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ham muhim o‘rin tutgan. Qo‘qon xonligi davridagi tarixiy manbalar Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli ushbu davr tarixnavisligi va manbalarini chuqur o‘rganish hamda ularni kelajak avlodga yetkazish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://scientific-jl.com/obr/article/view/18717/18211>

2. Axmedov B.R. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari (qadimgi zamon va o‘rta asrlar) T., 2001.
3. Arslonzoda R. A. Qo‘qon xonligi manbashunosligi va tarixnavisligi muammolari ma’ruza matnlari (elektron versiyasi) Farg‘ona, 2007.
4. Abdurakhmanova, J. N. (2020). The policy of tolerance in Uzbekistan (in the case of Greeks). International Journal on Integrated Education, 2(5), 212.
5. Toshtemirova, S. (2020). Factors Affecting the Quality of Education and the Importance of the Education Cluster to Address Them. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(4), 151-156.

**“RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA YOSHLAR
MEDIASAVODXONLIGI: INNOVATSION VA XALQARO
YONDASHUVLAR”**

Boymatov Farhodjon Ziyodqo‘zi o‘g‘li
Qo‘qon DPU Tarix kafedrası o‘qituvchisi s.f.d (PhD)
Boymatovfarhod0402@gmail.com

ANNOTATSIYA Ushbu maqola mediasavodxonlikning yoshlarning fikrlash tarzi va qaror qabul qilish jarayoniga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Axborot oqimi tobora ortib borayotgan hozirgi davrda yoshlar ishonchli va yolg‘on ma’lumotlarni ajrata olish, dezinformatsiya va manipulyatsiyalardan himoyalana olish qobiliyatiga ega bo‘lishlari muhimdir. Mediasavodxonlik insonning tanqidiy fikrlash, ongli qaror qabul qilish va kiberxavfsizlikni ta’minlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Maqolada mediasavodxonlik darajasining yoshlarning ijtimoiy hayotidagi o‘rni, raqamli axborot makonida yo‘nala olish qobiliyati, dezinformatsiyaning ta’siri va undan himoyalalanish strategiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajribalar va ushbu yo‘nalishdagi dolzarb tadqiqotlar asosida mediasavodxonlikning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: mediasavodxonlik, axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash, yoshlar, ijtimoiy tarmoqlar, axborot xavfsizligi, feyk ma’lumotlar, dezinformatsiya, manipulyatsiya, kiberxavfsizlik, xalqaro tajriba.

АННОТАЦИЯ Данная статья посвящена изучению влияния медиаграмотности на мышление и процесс принятия решений молодежи. В условиях нарастающего потока информации крайне важно, чтобы молодые люди умели отличать достоверные сведения от ложных, защищаться от дезинформации и манипуляций. Медиаграмотность способствует развитию критического мышления, осознанного принятия решений и повышения кибербезопасности. В статье анализируется роль медиаграмотности в социальной жизни молодежи, их способность ориентироваться в цифровом информационном пространстве, влияние дезинформации и стратегии защиты